



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
2-сон



БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
То‘лқин Ismatulla o‘g‘li Yahyojev Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini takomillashtirishda korrelyatsion tahlil xususiyatlari	154
Ашур Али Рустам ўғли Латипов Аҳолининг бандлигини таъминлашга таъсир этувчи омиллар ва уларни аниқлаш йўллари	161
Ойбек Мадатович Эсанов Ўзбекистон Республикасида кўчмас мулкларнинг ҳисобини такомиллаштириш масалалари	167
БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Гулнора Мардиевна Шадиева, Шодиёр Абдихалилович Султонов Аҳоли бандлигини таъминлашда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ўрни	171
Акмал Абдувалиевич Абдусаидов Нодавлат иш билан бандлик хизмати ривожланишининг худудий хусусиятлари ва ишлаш технологияси	175
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Инатилло Убайдуллаевич Нематов Олий таълим хизматлари бозорини ривожлантиришда маркетинг стратегиясидан фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари	181
Iroda Yormamatovna Beknazarova Ingliz tilini muammoli o‘qitish texnologiyasidan foydalangan holda o‘rgatish	188
АТРОФ-МУҲИТ МУҲОФАЗАСИ	
Shohista Bobobekovna Toyirova Muhofaza qilinadigan hududlarning tashkil etilishining jamiyat va tabiat munosabatlaridagi ahamiyati	191
ИБРАТЛИ БИТИКЛАР	
Ҳақиқий бахт Донишмандлар айтган саккизта ҳикматлар	197

Iroda Yormamatovna Beknazarova – Samarqand davlat chet tillar instituti assistenti

INGLIZ TILINI MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA O‘RGATISH

Anotatsiya: maqolada ingliz tili fanini o‘qitishda muammoli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish tahlil qilingan. Bunda talabalar o‘z ustida ishlash, yangi bilimlarni mustaqil egallash, qo‘yilgan muammoli vaziyatdan chiqib ketishning har xil variantlarini topish va ularni tahlil qilishda to‘g‘ri yechimga kelish, aqliy faoliyatni rivojlantirish, olgan bilimlarini kelajakda qo‘llay olish, qaror qabul qilish ko‘nikmalari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli o‘qitish texnologiyasi, munozara, vaziyat, ijodiy fikr, tahlil qilish, aqliy faoliyat, tasvirlash, idrok etish.

Kirish. Ingliz tili fanidan malakali kadrlarni o‘rganuvchilar talablariga qarab tayyorlash, talabalarining ingliz tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun ham, ingliz tili o‘qituvchilari talabalarga dars berishning yangidan yangi rivojlantiruvchi texnologiyalari va usullarini foydalanishi kerak bo‘ladi. Shunday usullaridan biri muammoli o‘qitish texnologiyasidir. Bu texnologiyaning asosiy vazifasi – talabalarining ingliz tili faniga oid bilimlarni samarali o‘zlashtirishlariga yordam berish, hamda olgan bilimlarini kelajakda kasbiy faoliyatlarida paydo bo‘ladigan yangi vaziyatlarda ijodiy yondashish orqali mavjud bo‘lgan muammolarini yechish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. Bunda fan o‘qituvchisi savollar qo‘yish orqali qo‘yilgan savol yechimlarining usullarini taklif qilish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, talabalarga muammoni yechimini topish uchun murojaat etish ta‘lim usullari orqali talabalarni ijodiy fikrlashga va munozaraga chorlash mazkur texnologiyaning asosiy mohiyati hisoblanadi. Talabalar qo‘yilgan muammo yechimlarini izlash jarayonida mavjud ma‘lumotlardan foydalanish davomida, ya‘ni yangi so‘z va so‘z birikmalarini eslab qolish bilan birga yangi sinonim, omonim yoki antonim so‘z va so‘z birikmalariga ham murojaat etadi va ulardan foydalanishni o‘rganadi.[1-5].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bu texnologiyadan foydalanishda muammoni to‘g‘ri qo‘yish va muammoni hal qilish uchun talabalar yakka holda yakka jamoa bo‘lib topish asosiy ahamiyat kasb etadi[1]. Shu sababli yaratilgan muammoli vaziyat shunday ketma-ketlikda qurilishi kerakki, fan bo‘yicha o‘tilgan o‘quv materiallaridan tuzilgan bo‘lib, talabalar mustaqil ishlashlari va o‘zlashtirishlari kerak. Ingliz tili fanini o‘qitishda muammoli vaziyatni o‘rganish berilgan materialni tahlil qilishda talaba shu vaziyatga mustaqil kirishishi, uni tushunishi, baholay olishi kerak. Uzoqova L.P., Turdiyeva M.J. [1] ishlarida maxsus fanlardan mashg‘ulotlarni muammoli o‘qitish texnologiyasi asosida tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Лернер И.Я [2] va Селевко Г.К. [3] lar darslarda qo‘llaniladigan ko‘pgina metodlar haqida umumiy tushunchalar berilgan.

Ingliz tili fanidan muammoli vaziyatni yaratish tayyorlash, tanishish, tahlil qilish va yakuniy qaror qabul qilish kabi bosqichlarga bo‘linadi [2]. Muammoli vaziyatni yaratishning ilk bosqichida ingliz tili fani o‘qituvchisi qo‘yilayotgan muammo ingliz tili kursining mantiqiy davomi bo‘lishi, vazifaning murakkabligi talabalarining imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak, talabalarga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun ko‘rsatma bo‘lishi kerak. Tanishish qismida fan o‘qituvchisi qo‘yilayotgan vazifaning umumiy mohiyati va mazmunini tushuntirib beradi. Shu bilan birgalikda talabalarni muhokama qilishga chorlaydi. Tahlil qilish va yakuniy qaror qabul qilish qismida qo‘yilgan muammo tahlil qilinadi va munozarali shaklda guruh bo‘lib muhokama qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi jarayoni-da tizimli

yondashuv, mantiqiy fikrlash, individual va guruhlarda ishlash, taqqoslash va solishtirish, ijodiy va mustaqil fikrlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Muammoli o‘qitish texnologiyasining muhim jihati shundan iboratki, talabalarda kelajakdagi kasbiy faoliyatida duch keladigan muammolarni tahlil qilishi va vaziyatlarni mustaqil hal qila olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli ingliz tili darslarini mazkur texnologiyadan foydalangan holda tashkil qilish talabalarda ijodiy va mustaqil fikr yuritishni rivojlantiradi. Ingliz tili fanini muammoli o‘qitish texnologiyasining yozish ko‘nikmasi (writing skill) quyidagicha bo‘lishi mumkin.

- O‘qituvchi yozish uchun muammoli vaziyat yaratadi, misol keltiradigan bo‘lsak, “Insonning ko‘rinishini tasvirlash” (Describing people) mavzusini olaylik. Shu mavzuga doir mashg‘ulotlar tayyorlanadi; talabalarga sifatlar beriladi va qaysi sifatlar ijobiy yoki salbiy sifatlarini tavsiflashini aniqlash va ulardan beshtasini tanlab har bir sifatni asoslovchi jumlar yozish, so‘ngra qisqa paragraf yozish aytiladi. (Decide which adjectives describe positive or negative qualities. Choose any five of them and write sentences justifying each quality, then write a short paragraph). Muammoni yechishni ijodiy hal qilish uchun talabalarni kichik guruhlariga ajratamiz. Kichik guruhlariga ajratish orqali muhokama qilish uchun sharoit yaratiladi.


- muammoni yechish uchun talabalar o‘tilgan mavzularda olgan bilimlaridan foydalanib, kichik guruhdagi talabalar berilgan sifatlardan foydalanib umumlashgan yechimga keladi. Bunda har bir talabada ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanibgina qolmasdan bilim olish darajasi ortadi. Qo‘yilgan “Insonning ko‘rinishini tasvirlash” muammosida hal qilishda akademik so‘zlardan foydalanish faolligi ortadi.

Shuning uchun ham ingliz tilini o‘qitishda muammoli vaziyat yaratish orqali talabalarning ingliz tilini bilishning to‘rtta ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradilar shuningdek, talaba guruh bilan ishlash, guruh a‘zolarini fikrlarini qo‘llab quvvatlash, o‘z fikrini jamoada erkin bayon etish, mustaqil fikrlay olish, ko‘nikmalari shakllanadi. Ingliz tilini o‘rgatishda barcha ko‘nikmalarni hisobga olgan holda, muammoli vaziyat tanlashda hozirgi vaqtda ijtimoiy tarmoqlardagi voqealar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki voqealar va dalillar qanchalik ommabop bo‘lsa, talabalarning faolligi va muammoni hal qilish imkoniyatlari yetarlicha oshadi. Ingliz tilini o‘qitishda muammoli vaziyatlar yaratish orqali talabalarning mustaqil bilim olish-larini, har bir mavzuga ijodiy yondoshishlarini rivojlantiradigan metodlar bilan boyitishdir. Ingliz tili fanini muammoli o‘qitish texnologiyasidan foydalanib o‘qitish ijobiy natijalar beradi [2].

O‘qitishda muammoli vaziyat yaratilganda, muammoni talaba o‘zlashtirgan bilimlariga tayangan holda hal qiladi. Masalan, berilgan fikrga tarafdor va fikrga qarshi insholar (agree or disagree essay) yozishda o‘rganuvchi mavzuga qo‘shiladimi, yo‘qmi yoki betaraf ekanligini sabablarini misollar bilan bayon etadi. Bu esa o‘z navbatida mazkur texnologiya mazmuni va mohiyatidan mantiqiy ketma-ketlikka ham o‘xshaydi.

Talabalarni guruh bo‘lib muammoni hal qilishlari orqali tengdoshlari orasida fikrlarini hech qanday to‘siqlarsiz, qarshiliksiz, boshqaning fikrlariga qaramsiz bayon etadilar. Shu sababli o‘qituvchi har bir talabaning fikrini rag‘batlantirish kerak bo‘ladi. Masalan, “Insonning ko‘rinishini tasvirlash” (Describing people) mavzusida talaba B2 darajasidagi so‘z yoki so‘z birikmasini ishlatgan bo‘lsa, unga mos C1 darajasidagi akademik so‘z yoki so‘z birikmasi ishlatilganda yanada yaxshi bo‘lar edi degan ma‘noda talaba foydalangan so‘zni inkor qilmaslik, ya‘ni ijodiy fikr muloqot tarzda berilishi kerak. Guruh bilan ishlashda guruhga nisbatan faolroq talabalarning borligi muammoni hal qilishda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va muammoning yechimini tezroq bartaraf etishga olib keladi. Bu esa qolgan talabalarda keyingi qo‘yiladigan muammolarga yanada faolroq bo‘lishlariga undaydi.

Ingliz tilini muammoli o‘qitishda fan o‘qituvchisi faoliyati quyidagi blok-sxema orqali berilish mumkin:



Shundan so'ng o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar beriladi.

Talaba esa qo'yilgan muammoni hal qilishni izlaydi, taklif qilingan yechim variantlardan bilimlariga tayangan holda to'g'ri yechimni aniqlaydi va mavzu yuzasidan ma'lumotga ega bo'ladi. O'qituvchi va talabaning faoliyatidan ko'rish mumkinki ingliz tili fanini o'qitishda muammoli o'qitish texnologiyasining samarali bo'lishi o'zaro hamkorikka bog'liqdir.

Masalan, Rasmiy va norasmiy xatlar (Formal and informal letter) yozishda talaba "Rasmiy yoki norasmiy xatlar bir-biridan qanday farq qiladi?", "Rasmiy yoki norasmiy xatlar qanday bendlarga ajratiladi yoki necha baddan iborat bo'ladi?", "Rasmiy xatlarning qanday turlari mavjud?", "Rasmiy yoki norasmiy xatlar qanday holatlarda yoziladi?" kabi savollarga javob topishga harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida talabaning bilimini oshirishiga imkon beradi, ya'ni ilmiy-izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanadi. Shu sababli ingliz tilini muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanib ta'lim berish talabalarning muammo yechimlarini topish jarayonidan izlanishlarni boshqaradi. Talaba tomonidan yangi bilimlarni bilish va egallash omillari o'qituvchi yordamida amalga oshiriladi. Qo'yilgan muammoli savollar orqali talabalarni faolligi oshiriladi.

Ingliz tili fanini muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanib ta'lim berganda turli shakllardan foydalanish mumkin [1,3,5]:

1. Fan o'qituvchisi qo'yilayotgan muammoli savolni to'liq bayon qiladi va yechimini beradi. Bunda o'qituvchi talabalarga savollar berish orqali ularni mustaqil mulohaza yuritishga undaydi. Masalan, CV/Resume yozishning shakllari mavzusi yuzasidan topshiriqlar beriladi va talabalardan CV/Resumeni yozilish tartibi bendlari, unda ishlatiladigan so'z birikmalarini qanday ishlatilishini nazorat qilib boriladi.

2. Fan o'qituvchisi muammoli savolni qo'yadi va faqatgina topshiriqning mazmunini bayon qiladi. Talabalardan mustaqil ishlashni talab qiladi. Masalan, maslahat so'rash va maslahat berish xatlari (Letters of asking and giving an advice)ni yozish muammosi qo'yilsa, bu xatlarning boshqa xatlardan farq qiladigan jihatlari aytiladi va mavzu ustida mustaqil ishlash talab etiladi.

3. Fan o‘qituvchisi muammoli vaziyat yaratadi. Bunda talabalarga muammoli savolga javob topish uchun mustaqil fikrlashga yo‘naltiriladi.

4. Fan o‘qituvchisi muammoli vaziyatning mazmuni va yechimini bermaydida unga “yaqinlashadi”. Bunda talabalar ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatdan chiqishadilar.

Ingliz tili fani o‘qituvchisi mazkur texnologiyadan foydalanganda talabalarga yechimlarni bermasligi lozim. Shundagina, o‘qituvchi talabalarning yangi bilimlarni izlash va idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam bergan bo‘ladi. Natijada talaba olgan bilimlaridan keltirilgan dalillar ketma-ketligida aqliy masalalarni mustaqil yecha oladi, xulosa chiqaradi, umumlashtiradi va kelajakda duch keladigan muammoli vaziyatlarda qo‘llay oladi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz tili fanini o‘qitishda muammoli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish natijasida talabalarda o‘z ustida ishlash, yangi bilimlarni mustaqil olish, qo‘yilgan muammoli vaziyatdan chiqib ketishning har xil variantlarini topish va ularni tahlil qilishda to‘g‘ri yechimga kelishning aqliy faoliyatni rivojlantirish, olgan bilimlarini kelajakda qo‘llay olish, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Ingliz tili fanida muammoli o‘qitish texnologiyasini qo‘llash uchun fan o‘qituvchisida dastlabki tayyorgarliklar, ya‘ni mazkur metodni puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi va talabalarni erkin fikrlashlariga, har bir muammoga ijodiy yondashishni rivojlantiruvchi masalalarni qo‘ya olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Uzoqova L.P., Turdiyeva M.J. Maxsus fanlardan mashg‘ulotlarni muammoli o‘qitish texnologiyasi asosida tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslari // SamDU Ilmiy axborotnoma, Samarqand, 2020, №2(120), - 123-129 b.
2. Лернер И.Я. Внимание о технологии обучения // Сов.Педагогика.-Москва, 1990.-№3.- 139 с
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии.- М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
4. Beknazarova I.Yo. Ingliz tilini o‘qitishda mustaqil ta‘limning samaradorligini oshirish // “Buyuk Ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta‘lim va madaniyat” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand: SamDChTI. <http://dx.doi.org/10.26739/conf10.10.202>
5. Beknazarova I.Yo., Nosirova R.A. “Adaptation of students in a higher educational institution: analysis of problems, search for resources” ОАҚда эътироф этилган “Сервис” илмий-амалий журнали, № 1, 2022.УДК 41 ББК 81.2

<p style="text-align: center;">И.Бекназарова Преподавание английского языка с использованием технологии проблемного обучения</p> <p>Аннотация: в статье анализируется использование технологии проблемного обучения в обучении английскому языку. При этом учащиеся должны работать над собой, самостоятельно приобретать новые знания, находить различные варианты выхода из той или иной проблемной ситуации и приходить к правильному решению, анализируя их, развивать мыслительную деятельность, уметь применять полученные знания в будущем, принимать решения.</p> <p>Ключевые слова: проблемная технология обучения, дискуссия, ситуация, творческое мышление, анализ, умственная деятельность, воображение, восприятие.</p>	<p style="text-align: center;">I.Beknazarova The use of problem-based teaching technology in teaching English</p> <p>Abstract. The article analyzes the use of problem-based teaching technology in teaching English. In this, students should work on themselves, acquire new knowledge independently, find various options for getting out of a given problem situation and come to the right solution while analyzing them, develop mental activity, be able to apply the knowledge they have acquired in the future, make decisions.</p> <p>Keywords: problem teaching technology, discussion, situation, creative thought, analysis, mental activity, imaging, perception.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

2.06.2023 йилда теришга берилди. 21.06.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0045А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023